

XOTIRASI QALBLARDA MANGU.

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

San'at bo'limi mudiri: **D.To'xtaboyeva**

Bir-birini takrorlamas rollari bilan xalq orasida mashxur bo'lgan, Farmonbibi nomi bilan ko'p qalblardan joy olgan O'zbekiston xalq artisti, aktrisa-Tursunxon Ja'farovadir.

Munis va go'zal, halol va mard, sadoqat-iqbolli, iymon-e'tiqodli o'zbek ayollari obrazlarini meyoridan ham ortig'i bilan yaratishga muvaffaq bo'lgan aktrisalарimizdan edilar.

O'zlarining rollari bilan kinolarda obrazlar yaratish bilan birgalikda teatr sahnalarida ham ijod qilgan ustoz edilar.

16 yosh bo'lishiga qaramasdan teatr ostonasiga qadam qo'ygan qizaloq yillar o'tishi bilan ijro etgan rollari bilan insonlar qalbidan chuqur joy egallaydi deb kim ham o'ylagan. Asli namanganlik bo'lgan aktrisa 1917 yilda tavallud topgan. Namangan shaxridagi havaskorlik drama to'garagiga kirib kelganda 16 yoshda edi. Bu drama to'garagi asosida o'zbek milliy sahna san'atining otaxon teatrlaridan biri poydevor olib, faoliyat yurita boshlagan o'sha suronli yillarda Tursunxon ham, Lutfixonim Sarimsaqova, Xalima Nosirova, Zamira Hidoyatova, Tursunoy Saidazimovalar safida jasorat ko'rsatib, sahnaga chiqdi. Xalqimiz uchun o'sha murakkab davrlarda ayollarimizning sahnaga chiqishlarining ozi qahramonlik bilan teng edi.

Viloyat teatrda dastlab o'zbek milliy musiqa san'atining Farg'ona, Toshkent yo'li bilimdonlaridan Usta Ro'zimatxon Isabayev, Razzoq Hamroyevlardan tahsil olgan. Bunday san'at dargohida aktrisa, Halima (G'.Zafariy "Halima"), Shirin (A. Navoiy "Farxod va Shirin"), Layli (A.Navoiy "Layli va Majnun"), Turandot (Q. Goss "MALikai Turandot"), Klariche (K.Gal'doni "Ikki boyga bir malay") kabi obrazlarni yaratar ekan, bularning hammasi o'zbek sahnasiga iste'dodli aktrisa kirib kelayotganidan dalolat berar edi.

Namangan teatrning asoschilaridan biri xalq artisti Razzoq Hamroyev o'zining "Xotira va mulohazalar" kitobida "Birinchi spektakllarda Layli roli Andijonda Nazira Ahmedova o'ynagan bo'lsa, Namangan sahnasida bu rolni katta ishtiyoq, ulkan muhabbat ajoyib mahorat bilan Tursunxon Jafarova ijro etdi" –deb baho berilgandi. Tursunxon shu taxlit 1940 yildan e'tiboran Toshkentda Muqimiy nomli Respublika musiqali drama va komediya teatriga kirib keldi.

O'ziga nisbatan talabchan, tinimsiz o'z ustida ishlovchi, izlanuvchan aktrisa mahoratini yillar mobanida oshirib bordi.

O'sha paytlarda yangi teatrga iqtidorli yoshlar yetishmagan. Tursunxon Ja'faro va tez vaqtda poytaxtda talabchan san'at shnavandalari nazariga tushgan va keng ommaga tanilib borgan.

U Lutfixonim Sarimsaqova, Razzoq Hamroyev, Soib Xo'jayev va boshqa atoqli, mashhur san'atkorlar bilan xizmat qilish nasib etgan. Uning "Vatan ishq" spektaklida ijro etgan Narzi roli aktrisini mashhur qilgan.

Uning Xamid G'ulomning "Toshbolta oshiq" musiqali komediyasidagi Risolat pari rolini o'ynagandan so'ng Tursunxon Ja'faro va tom ma'noda shon-shuhratga ko'milgan. Aktrisa Risolat pari rolini butun latofati bilan mahorat ero Tursunxon ayaning o'zi hayotda shunday fazilatlar sohibi edi.

1963 yili "Uchrashuv" qisqa metrajli filmda suratga tushgan. Shu damda "O'n uch terak ko'chasi", "Tog'lardagi aks sado", "Oq yol haqida qissa", "Olmos kamar", "Kelinlar qo'zg'oloni" kabi qator filmlarda uning ijrosidagi onalar obrazlari dunyoga keldi.

Shu o'rinda "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasi haqida qisqacha ma'lumot bilan tanishtirib o'tsam: Komediya atoqli yozuvchilardan biri Said Ahmad tomonidan yozilgan. Kinokomediyaning esa taniqli o'zbek rejissori Melis Abzalov tomonidan 1984 yilda yaratilgan. Ushbu asar o'z davrining eng yaxshi o'zbek kinokomediylaridan biri hisoblangan. Rus tiliga tarjima qilingan.

Komediya Farmonbibining yetti o'g'illari va yettita kelinlari nabiralari va boshqalarning obrazlari bo'lib, o'zbek xalqining bitta oilasi turmush tarzi yoritilgan.

Ayniqsa oiladagi onalar ro'li zo'r mahorat bilan yoritilgan. Farmonbib obrazini jiddiyligi, qattiqqo'lligi, bir so'zligini, birinchi o'ringa qo'ygan. Tarbiyaviy ahamiyatini ko'pchilik dilidagi xotima bilan yakunlangan.

Tursunxon Ja'farova ana shunday zo'r mahorat egasi, ajoyib ijodkor, ijodda o'zidan nurli iz qoldirib ketgan san'atkor edi.

1997 yil mart oyida Tursunxon Ja'farova bu yorug' olamdan ko'z yumgan.

Bugungi kunda oramizda bo'lganlarida 109 yoshni qarshi olgan bo'lardilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroyev, R. *Xotira va mulohazalar*. – Toshkent.
2. Said Ahmad. *Kelinlar qo'zg'oloni*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
3. G'ulom, X. *Toshbolta oshiq*. – Toshkent.